

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SHAMATOVA OMINAXON SHUKURDINOVNA**

**TURLI TIL BILISH DARAJASIDAGI NOFILOLOGIK OTM  
TALABALARIGA TIL O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI  
(axborot texnologiyalari va kompyuter injinering yo'nalishlari misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical science**

**Shamatova Ominaxon Shukurdinovna**

Turli til bilish darajasidagi nofilologik OTM talabalariga til o‘qitishning lingvodidaktik asoslari (axborot texnologiyalari va kompyuter injinereng yo‘nalishlari misolida)..... 3

**Шаматова Оминахон Шукурдиновна**

Лингводидактические основы обучения языку студентов нефилологических ВУЗов с разным уровнем знаний языка (на примере направления информационных технологий и компьютерной инженерии)..... 25

**Shamatova Ominakhon Shukurdinovna**

Linguodidactic foundations of teaching the language to students of non-philological universities of Multi-Level approach (on the example of areas of Information technology and computer engineering)..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SHAMATOVA OMINAXON SHUKURDINOVNA**

**TURLI TIL BILISH DARAJASIDAGI NOFILOLOGIK OTM  
TALABALARIGA TIL O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI  
(axborot texnologiyalari va kompyuter injinering yo'nalishlari misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6654 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.namsifl.uz](http://www.namsifl.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Isroilova Dildora Muxtorovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Atadjanova Shaxnoz Abbasovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Saydaliyev Saidumar**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998(69) 442-11-67, faks: +998(69)442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz).


Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998(69) 442-11-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

  
**N. T. Dosbayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

  
**I. I. Umrzaqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

  
**S. A. Misirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent



## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati** Dunyoda ilm-fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti hamda insoniyatni elektron axborot texnologiyalar asrini boshidan kechirayotganligi uni raqamli asrga moslashishini taqozo etmoqda. Elektron qurilmalarni ilm-fan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish sohalariga keng tadbiiq qilinishi, o'sha hududlarda mamlakatlararo ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kengayishiga olib keldi. Bunday globallasuv jarayonida axborot texnologiyalari, kompyuter injineriing sohalariga bo'lgan talab va e'tibor kuchayib, IT yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashda ularning til bilish ko'nikmalarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Shu bois, kompyuter injineriing yo'nalishi talabalarini o'qitishda chet tilni kasbiy fan bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, sohaviy o'quv materiallar ta'minotida ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligini inobatga olinishi va mos o'quv strategiyalar uyg'unligi taklif qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi IT sohasini takomillashtirish talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu yo'nalish talabalariga chet til o'qitishning muhim omillari sifatida bir qancha usullar va yondashuvlar taklif qilingan va amaliyotda muvaffaqiyatli tarzda qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Rossiya, Eron, Yaponiya, Germaniya davlatlarining Oliy ta'lim muassasalari IT yo'nalishlarida bo'lg'usi sohaviy mutaxassislarning kasbiy so'z boyligini ingliz tilida rivojlantirish (Science, Technology, Engineering, Math-fan, texnologiya, muhandislik, matematika-STEM), (Content and Language Integrated Learning-mazmun va tilning fanlararo bog'liqligi-CLIL), (English as a Medium of Instruction-ingliz tili vosita sifatida-EMI) ga alohida e'tibor qaratilgan. Bu dasturlarlarining asosiy mazmun-mohiyati, sohaviy autentik matnlar va matn yuzasidan tuzilgan mashqlar orqali talabalarning kasbiy leksik boyligini oshirish, kreativlikka asoslangan topshiriqlarning optimal variantlari yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy muloqot yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mamlakatimizda IT texnologiya sohalariga mutaxassislarni tayyorlashda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, kasbiy ingliz tili o'qitish metodikasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda, me'yoriy asoslari yaratilib, bir qancha qarorlar qabul qilingan. Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish orqali davlat organlari hamda tarmoq tashkilotlarini malakali IT mutaxassislar bilan ta'minlash borasida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida: "Iqtisodiyotni tubdan takomillashtirishning eng muhim omillaridan biri axborot-texnologiyalari va raqamli texnologiyalardir. Shuning uchun kelajagimiz bevosita AKT va ularga tayangan mutaxassislar bilan bog'liqdir"<sup>1</sup>, – deya e'tirof etganlari bejiz emas.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar-strategiyasi to'g'risidagi 2017-yil 7- fevraldagi PF- 4947-sonli farmoni <https://lex.uz/acs/-3107036>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident Qarorlari shular jumlasidandir. Ko‘rsatib o‘tilgan Prezident Qarorlarida keltirilgan taklif va mulohazalar, belgilab berilgan vazifalar tadqiqot ishimizning mohiyatini ochib berishimizda katta rol o‘ynadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda chet til o‘qitish metodikasi va uning muammo va yechimlari bo‘yicha J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, M.Djusupov, T.K.Sattarov, D.U.Xoshimova, I.M.Tuxtasinov, F.M.Rashidova, Sh.S.Ashurov, G.G.Azizova, N.G.Irmuhammedova, F.I.Ikromxonovalar samarali izlanishlar olib borishgan va til o‘qitishning lingvodidaktik ta’minot xususiyatini yoritib berishgan<sup>2</sup>.

Nolisoniy OTMda chet tillarni fanlararo bog‘liqlik tamoyillari asosida o‘qitishda D.M.Isroilova, N.X.Kusheva, S.D. Muhamedjanova, X.F. Maqsudovalar ilmiy izlanishlar olib borgan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик – Т.: Ўқитувчи. 2012. – 432 б; Ахмедова Л.Т. Кон О.В. Методика преподавания русского языка. – Т.: Фан ва технология, 2013. – 240 с.; М. Джусупов. Лингводидактика и методика в полунаучной системе языкового образования. Русский язык за рубежом. – Москва, 2009. – С. 17- 23; Саттаров Т.К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т, 2003. – 51 б.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковой взаимодействий. дисс. ... док. пед. наук. – Т, 2007. – 209 с.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ходисаси асосида ривожлантириш. Автореф. пед. фан. докт. (DSc) – Т, 2018. – 66 б.; Рашидова Ф.М. Ўзбекистон узлуксиз таълим тизимида CEFR ни тадбиқ этишнинг концептуал – методик асосларини такомиллаштириш (инглиз тили мисолида). автореф. пед. фан. докт. (DSc) – Т, 2017. – 67 б.; Ж.Ж.Жалолов, Махкамова Г.Т, Ашуров Ш.С. English language teaching methodology. Фан ва технология нашриёти – Т.: 2015. – 338 б; Азизова Г.Г. Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий фаолиятини такомиллаштириш (инглиз тили материаллари мисолида). автореф. пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). –Т, 2019. – 52 б; Ирмахаммедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов (на старших курсах экономических вузов): дисс. ... канд. пед. наук. – Т, 2008. – 157 с; Икромхонова Ф.И. Нолисоний олий ўқув юртларида чет тили ўқитишнинг лингводидактик муаммолари. Педагогика таълими. № 2-Тошкент.: 2009. – В. 66-67.

<sup>3</sup> Isroilova D.M. Muhandis talabalarni chet tili kasbiy muloqotiga o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish (ingliz tili, magistratura). Ped.fan.doktori (DSc). diss. Avtoref. – Ch, 2023. – 15b; Kushiyeva N.X. Uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o‘qitish modeli. Ped.fan.doktori (DSc). diss. avtoref. –T, 2023. – 35 b; Muhammedjanova S.D. Bo‘lajak mutaxassislarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida

MDH davlatlarida chet tillarini o'qitishda kasbiy lingvodidaktikani, kasbiy-sohaviy leksikani, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, kommunikativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish muammolari bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. N.V.Bagretsova, O.I.Jdanko, A.K.Krupchenko, P.I.Obraztsov, R.P.Milrud, D.L.Matuxin, I.Ye.Zuyeva, V.V.Safonova, Ye.N.Salovova, V.I.Andriyanova, N.I.Jinkin, M.V.Dubovalarning ilmiy tadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi <sup>4</sup>.

Xorij mamlakatlarda Multi-Level turli til bilish darajasidagi talabalarga til o'qitishda yuzaga keladigan kamchiliklar, qo'llanilgan texnika va usullar, bilimni baholashda qo'llanishi lozim bo'lgan strategiyalar va auditoriyada o'qituvchining roli borasida qilingan tahlillarni chet el metodist olimlaridan Mak Karzi (McCarthy), Shank va Teril (K.Shank, L.Terrill), Soto Gardon Stefaniya (Soto Stephanie Gordon), Treko (N.Treko), Kosta (E.Costa), S.Imeneker (S.Emmenecker), Nans (M.B. Nunes), Peni Ur (Penny Ur), Sofiya Xan (Sophiya Khan) larning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin<sup>5</sup>.

---

kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari (texnika yo'nalishlari misolida). Ped.fan.bo'yicha falasafa doktori (PhD) diss. avtoref. 2021. – 55 b; Maksudova. X.F. Farmasevtika yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish. Ped.fan.falsafa doktori (PhD). Diss. avtoref. –T, 2020. – 50 b.

<sup>4</sup> Багрецова Н.В. Формирование иноязычной лингвокультурной компетентности у студентов направления подготовки «Нефтегазовое дело» в профессионально ориентированном обучении английскому языку. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2017. – 24 с; Жданько О.И. Методика формирования профессионально ориентированной лексической компетенции обучающихся в техническом вузе: дисс. ... кан. пед. наук. – Нижний Новгород, 2016. – 118 с; Крупченко А.К. «Основы профессиональной лингводидактики» // Профессиональная лингводидактика в высшем образовании. сборник науч. метод. материалов М.В. Дружинина. – Архангельск, 2013. – Вып.1. –124 с - (ISBN 978-5-261-00792-0). Образцов П.И. Методология, методы и методика педагогического исследования: Учебное пособие. – Орел. 2016. – 134 с; Мильруд. Р.П. Методика преподавания английского языка. English teaching methodology. –М.: Дрофа, 2005. – 253 с.; Матухин Д.Л. Особенности обучения иноязычному общению студентов лингвистических специальностей на основе коммуникативного подхода. – Томск, 2011. – 35 с.; Зуева И.Е. Коммуникативно-ориентированная методика обучения младших школьников лексической стороне иноязычной речи: Автореф. дисс. канд. пед. наук. ГОУ ВПО. – Нижегородский государственный педагогический университет, 2009. – 40 с.; Сафонова В.В. Коммуникативная компетенция. – М.: Еврошкола, 2004. – 236 с.; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций. – М.: «Просвещение», 2002. – 239 с.; Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречемому общению на русском языке. Дисс...док.пед наук. – Т, 1997. –350 с.; Жинкин Н.И. Механизм речи. 3-е изд. – М.: 1991. – 370 с; Дубова М.В. Компетентность и компетенция и ее роль в овладении иноязычным профессиональным общением. Профессиональная коммуникация как цель обучения иностранному языку в неязыковом вуза: Сб. Науч. тр. – М.: Изд. Московского лингвистического университета, 2000. – С. 60-65.

<sup>5</sup> McCarthy.B. Managing large foreign language classes at university. //Journal of University Teaching and Learning Practice.1 (1), 2004. – P. 35-48; Shank.K, Terrill. L. Teaching multi- level adults ESL classes. – Virginia: Arlington Education and Employment Program, 2003.– P. 45; Soto Stephanie Gordon. A case study on Multi – Level language ability groupings in an ESL secondary school classroom: are we making the right choice. –W. 2010. – 5 p; Treko. N. The big challenge: teaching large multi- level classes. //Academic Journal of Interdisciplinary Studies. 2 (4), 2013. – P. 243- 251; Costa.E, V. Timmons. «Innate Challenges and Promising Pedagogy: Training and Support in Multilevel Classrooms» Brock Education. – A. 2002.– P.17- 35; Emmenecker.S, Viens. J. Open to interpretation: Multiple intelligence theory in adult literacy education (NCSALL Report № 21. 2002,– May. – 89p; Nunes. M.B. Action Research and Reading Difficulty. English for Specific Purposes. –A. 1992. –P. 177- 188; Penny Ur. Heterogeneous (mixedlevel) class // Penny Ur`s 100 teaching Tips. – Cambridge, 2016.– University Press.[https://assets.cambridge.org/97813165/07285/excerpt/9781316507285\\_excerpt.pdf](https://assets.cambridge.org/97813165/07285/excerpt/9781316507285_excerpt.pdf). Sophia Khan. Managing mixedability classes // # Aus EST chat summary. –E. 2013.–78p; <http://auselt.com/2013/07/22/auselt-chatsummary-managing-mixed-ability-classes-july-4-2013/> (murojaat sanasi: 11.01, 2022.)

Respublikamiz nofilologik OTM Axborot Texnologiyalari va Kompyuter Injineriing yo‘nalishlari turli til bilish darajasidagi, ya’ni (Elementary-boshlang‘ich, Pre-intermediate–o‘rta, Intermediate-yuqori) talabalarini ingliz tilidagi kasbiy lug‘at boyligini sohaviy matn va matn yuzasidan tuzilgan mashqlar asosida til ko‘nikmalarni rivojlantirishga, va shu orqali kasbiy muloqotga tayyorlashga qaratilgan ilmiy–metodik tavsiyalarning yetarli emasligi bizning ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbliligini belgilab berdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon davlat pedagogika instituti “Nofilologik yo‘nalishlarda chet til o‘qitishning dolzarb muammolari 2022-2024” boyicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** turli til bilish darajasidagi nofilologik OTM ATKI yo‘nalishi talabalariga chet til o‘qitishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nofilologik oliy ta’lim muassasalari Axborot Texnologiyalari va Kompyuter Injineriing yo‘nalishi turli til bilish (Elementary-boshlang‘ich, Pre-intermediate - o‘rta, Intermediate-yuqori) darajasidagi talabalarga tadqiqot muammosi yuzasidan til o‘rgatishning xususiyatlarini o‘rganish;

Multi-Level (Elementary-boshlang‘ich, Pre-intermediate-o‘rta, Intermediate-yuqori) darajasiga ega bo‘lgan talabalarni zamonaviy talablar asosida o‘qitishning hozirgi holatini aniqlash;

tabaqalashtirilgan topshiriqlar vositasida til ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy leksikani oshirish va kommunikativ muloqotni rivojlantirish;

fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy leksikani o‘qitishda talabalarning ijodkorligini oshiruvchi mashqlar tipologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;

innovativ metodlar vositasida yani, shaxsga yo‘naltirilganlik asosida o‘qitish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish;

ATKI yo‘nalishi Multi- Level darajasidagi talabalarga ingliz tilini o‘qitishda saralangan va taqdim etilgan materiallar vositasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida nofilologik oliy ta’lim muassasalari axborot texnologiyalari va kompyuter injineriing yo‘nalishi 1-kurs turli til bilish darajasidagi talabalarga sohaviy ingliz tilini o‘qitish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ATKI yo‘nalishi turli til bilish darajasiga ega bo‘lgan talabalarga ingliz tilini o‘qitishning mazmuni, shakllari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovlar, suhbat, so‘rovnoma, kuzatish), prognoz (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistik kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ATKI yoʻnalishi boshlangʻich (Elementary), oʻrta (Pre-intermediate) va yuqori (Intermediate) darajasidagi talabalarga sohaviy ingliz tilini fanlararo bogʻliqlikda oʻqitish texnologiyalari koʻnikmalar integratsiyasi asosida oʻqitish tamoyillari tabaqalashtirilganlik va mutaxassislikka mos yondashuvga koʻra takomillashtirilgan;

ATKI yoʻnalishi talabalarida sohaga oid autentik matnlar, elektron qurilmalarning ingliz tilidagi atamaları va ularni qoʻllash yoʻriqnomalarini oʻqib tushunish, dasturlash, operatsion tizimda ishlash jarayonida kodlarni funksional xatosiz yoza olish koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning oʻquv uslubiy taʼminoti takomillashtirilgan;

turli til bilish darajasidagi talabalarni hamkorlikda ishlash (*collaborative*) koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, psixologik nuqtayi nazardan oʻziga boʻlgan ishonchi oshiruvchi topshiriqlar, til oʻrganishga boʻlgan qiziqishni uygʻotishga qaratilgan web ilova yaratilgan;

multimedia vositasidan foydalangan holda shaxsga yoʻnaltirilganlik (Student Centred Approach), turli til bilish darajalilik (Multilevel Approach) asosida mashgʻulotlarni tashkil etish, kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali usullar, mashqlar tipologiyasi autentik video materiallar vositasida takomillashtirilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nofilologik oliy taʼlim axborot texnologiyalari va kompyuter injineriing yoʻnalishlari turli til bilish darajasidagi talabalariga ingliz tili oʻqitishda koʻnikmalar integratsiyalashuviga asoslangan tabaqalashtirilgan mutaxassisligiga oid matnlarni oʻz ichiga olgan va kasbiy terminlarni rivojlantirishga qaratilgan “English through digital devices” oʻquv qoʻllanmasi ishlab chiqilgan;

ATKI yoʻnalishi turli til bilish darajasidagi talabalarga moʻljallangan “English through digital devices” WEB ilovasi yaratilgan va foydalanishga tadbiiq etilgan. (DGU 18541)

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan usullar va yondashuvlar metodologik jihatdan samaradorligi bilan ajralib turadi. Nazariy maʼlumotlar internet rasmiy manbalaridan olinganligi bilan, mavzu yuzasidan yozilgan maqolalar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan, taklif va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Ilmiy tahlillar, takomillashtirilgan texnologiyalar va yondashuvlar tajriba-sinov jarayonida aprobatsiyadan oʻtkazilgan. Tajriba-sinov ishlarining samaradorlik koʻrsatkichlari matematik-stastistik usullar vositasida amalga oshirildi. Taklif, tavsiya va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani rasmiy vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Axborot texnologiyalari va kompyuter injineriing yoʻnalishi talablarini kasbiy muloqotga tayyorlashda toʻrtta til koʻnikmalarini rivojlantirishni nazarda tutgan autentik materiallarni saralash va taklif qilish, kasbiy muloqotga tayyorlashda Multi-Level darajasidagi talabalarni til oʻrgatish jarayonidagi qiyinchiliklari aniqlanib, bartaraf

etishga qaratilgan leksik va grammatik tabaqalashtirilgan mashqlar tipologiyasi taklif qilingan. Xalqaro va mahalliy darajadagi mutaxassislar bilan kasbiy muloqotni yarata olishi, hamkorlikda faoliyat yurita olishi, shuningdek ta'lim jarayonida yangi shart-sharoitlarni yaratishi bilan izohlangan.

IT sohasida mavjud turli til bilish darajasidagi talabalarga til o'qitishda foydalanilgan pedagogik yondashuvlar va uslubiy tavsiyalar hamda tahliliy va nazariy xulosalar chet til muallimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarida, shuningdek yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** ATKI yo'nalishlari (elementary-boshlang'ich, pre-intermediate – o'rta, intermediate – yuqori) darajasiga ega bo'lgan talabalarining kasbiy sohaga yo'naltirilgan ingliz tilini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik, metodik va professional lingvodidaktik xususiyatlari to'g'risidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan 2019-2022-yillarda bajarilgan ERASMUS + dasturining 609564 – EPP -1- 2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP CBHE loyihasi doirasida “O'zbekistonda ATKI bakalavriat ta'lim yo'nalishini zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida modernizatsiya qilish” loyihaning ta'limga doir seksiyasida ishchi dastur va o'quv rejalar tayyorlashda foydalanilgan. (Andijon mashinasozlik institutining 2023-yil 10-avgustdagi 38-05-812 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, turli til bilish darajasidagi talabalarni ingliz tiliga o'qitishdagi qiyinchiliklar va muammolarni bartaraf etishga erishilgan.

ATKI bakalavriat ta'lim yo'nalishlari Elementary (boshlang'ich), Pre-intermediate (o'rta) va Intermediate (yuqori) til bilish darajasiga ega bo'lgan talabalarining kasbiy sohaga yo'naltirilgan ingliz tilini rivojlantirishda tilni fanlararo bog'liqlikda ingliz tilida muloqot qilishlarini ta'minlovchi, turli kontekstlarda kasbga yo'naltirilgan leksik birliklarni idrok etish, talabalarining diqqat, xotira, tasavvur, kognitiv tafakkuri, ya'ni tanqidiy fikrlash (critical thinking), ijodkorona fikrlash (creative thinking) ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan nutq va til mashqlariga asoslangan ilmiy va amaliy tavsiyalaridan xalqaro 2020-2022-yillarda Britaniya Kengashining (British Council) O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda o'tkazilgan “Ingliz tili ta'lim vositasi sifatida English as Medium of Instruction (EMI) loyiha doirasida foydalanilgan. (Namangan muhandislik texnologiya institutining 2023-yil 4-oktyabridagi 2166-024 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, xalqaro loyiha doirasida autentik materiallar ishlab chiqishda va o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi muammo va qiyinchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishga erishilgan.

Multi-Level darajasidagi talabalarining ingliz tilida kasbiy leksikasini oshirish, fikrlash jarayoni bilan o'quv motivatsiyaning uyg'unligini ta'minlash, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiruvchi kolloborativ (colloborative), so'rovnoma (questionnaire), integrativlilik (Content Integrated Learning), topshiriqlarni bajarish texnikasi (Task-Based- Learning) usullari asosida mashg'ulotlarni tashkil etishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston» teleradiokanali, “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan, “Ta'lim va

taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari” kabi turkum ko‘rsatuvlar va eshittirishlarning ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston Teleradiokanali” Davlat Muassasasi 2023-yil 11-sentyabrdagi 04-36-1367-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, turli til bilish darajasidagi talabalarning ingliz tilida kasbiy leksikasini rivojlantirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan mashqlar tipologiyasi haqidagi ma‘lumotlar va ularning ta‘lim jarayonidagi afzalliklari bilan bog‘liq amaliy takliflar ommalashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 16 ta ilmiy maqola va tezislar, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta WEB ilova chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, bob bo‘yicha xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy ishning maqsad va vazifasi, tadqiqot obyekti va predmetining aniqlanganligi, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayoni, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyatining asoslab berilganligi, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Chet tilida turli til bilish darajasiga ega bo‘lgan talabalarni o‘qitishning ilmiy va nazariy asoslari”** deb nomlangan bobida turli til bilish darajasidagi talabalarni xorijiy tilga o‘qitishda leksik va kasbiy kommunikativlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, nazariy va amaliy asoslar ko‘rib chiqilgan va turli til bilish darajasidagi talabalarning xususiyatlari haqida soha mutaxassislarining konseptual qarashlari keltirilgan. ATKI yo‘nalishlarida til o‘qitish jarayoni kasbiy muloqotning integratsiyalashuvi asosida bo‘lishi, turli strategiya va zamonaviy talablar asosida o‘qitilishi ko‘nikmalar integratsiyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentliligiga qo‘yilgan muhim talablar kasbiy bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lishlik bilan bir qatorda, til bilishlari hamda kompyuter texnologiyalarini o‘z sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llay olishlaridir.

Kasbiy lingvodidaktika integral fan hisoblanadi. Tilni o‘zlashtirish mexanizmlarini hamda ularni boshqarish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Lingvodidaktika til o‘qitish nazariyasidir, ya‘ni o‘qitish metodikasining nazariy

qismi bo‘lib, tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyasi natijasida paydo bo‘lgan va ilmiy foydalanishga N.M.Shanskiy tomonidan kiritilgan. Lingvodidaktika chet tillarni o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlarini tashkil etib, interfaol yondashuvlarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. A.K.Krupchenko kasbiy lingvodidaktikani obyektiv ijtimoiy talab yuzasidan paydo bo‘lganini e‘tirof etib, turli soha vakillarining xalqaro ma‘lumotlar va tajriba almashinuvga bo‘lgan ehtiyoj tufayli yuzaga kelganini ta‘kidlaydi<sup>6</sup>. Talabalarni kasbiy kommunikativlikka tayyorlashda, kasbiy leksika muloqotda muhim o‘rin tutadi. Leksik materiallar to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ularni muvaffaqiyatli assimilyatsiya qilish kognitiv jarayonlar bilan ta‘minlanadi deydi O.Jdanko o‘zining ilmiy qarashlarida. U: “talabalar chet tilida muloqot qilishlari uchun turli kontekstlarda kasbga yo‘naltirilgan leksik birliklarni idrok etishi, tan olishi, talabaning diqqat, xotira, tasavvur, kognitiv tafakkuri, til va nutq qobiliyatlari uchun juda katta ahamiyatga egadir” deya e‘tirof etadi. Yana, kasbga yo‘naltirilgan chet tilni o‘qitish bu, talabalarining chet tilni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olishga asoslangan o‘qitish turidir deya ta‘rif beradi.<sup>7</sup>

ATKI yo‘nalishi talabalarini kasbiy leksikasini rivojlantirishda ko‘nikmalar integratsiyasini shakllantirish va kommunikativ kompetentlikka tayyorlashda til va nutq mashqlarining o‘rni ahamiyatli bo‘lib, jumladan, I.V.Raxmonov: “Til mashqlari til tizimiga oid materialni o‘zlashtirish va uni nutqda qo‘llash uchun xizmat qilsa, nutqiy mashqlar talabani o‘z fikrini boshqa tilda ifodalashga va boshqalar fikrini tushunishga o‘rgatadi. Til mashqlarini nutqqa tayyorlovchi umumiy tayyorgarlikdir”<sup>8</sup>, – deya e‘tirof etadi.

ATKI yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan talabalarga chet tilni o‘qitishga e‘tibor kuchaytirilgan bir paytda ushbu yo‘nalishlarda Multi-Level darajasidagi talabalarining mavjudligi va ularning til bilish ko‘nikmalarining har xilligi ularga ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar uchun muammolarga sabab bo‘layotgan omillardan biridir. O.V.Nefedov turli til bilish darajasidagi talabalar bilan ishlash jarayonini quyidagicha ta‘riflagan: “Nolisoniy oliy ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishda o‘qituvchilarning ko‘pincha duch keladigan muammolardan biri, talabalarining til bilish darajasining turli xilda ekanligidir”<sup>9</sup>. Ushbu guruhdagi talabalarni o‘qitishda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun, eng avvalo, o‘qituvchi dars jarayonini to‘g‘ri baholay olishi lozimligi va bu o‘qituvchining zimmasida ekanligini uqtiradilar<sup>10</sup>. Quyida guruhda mavjud bo‘lgan turli til bilish darajasidagi talabalarining umumiy ko‘rinishi tasvirlangan. (1-rasmga qarang).


<sup>6</sup> Крупченко А.К, Кузнецов А.Н. Основы профессиональной лингводидактики. Монография – АCADEMIA АТІК и ПІПРО М. 2015. – 232 с.

<sup>7</sup> Жданько О.И. Методика формирования профессионально ориентированной лексической компетенции обучающихся в техническом вузе: дисс. ... кан. пед. наук. –Нижний Новгород, 2016. – 118 с.

<sup>8</sup> Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлиари (факультетлари) талабалари учун дарслик – Т.: Ўқитувчи. 2012. – 432 б.

<sup>9</sup> Неведов О.В. Рациональная методика обучения иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых вузов (английский язык начальный этап) дисс. ... кан. пед. Наук – Пятигорск, 2014. – 201 с.

<sup>10</sup> Shank.C.C, Terill L.R. Teaching multilevel adults ESP classes. – Washington D.C, 1995. – May.– 96 p.



**1-rasm. Multi-Level guruhinig umumiy ko‘rinishi**

Talabalarning yoshi, til bilish kompetentligi va qobiliyatlari jihatdan saralashning imkoni, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida yoki kollej va litseylarda Oliy ta‘lim muassasalariga qaraganda yengilroqdir. Biroq, oliy ta‘lim muassasalarida talabalar an‘anaga ko‘ra egallagan til bilish ko‘nikmasiga ko‘ra emas, balki fakultet yo‘nalishlariga binoan guruh raqami, o‘quv yiliga ko‘ra ajratilishi mumkin.

Chet el soha mutaxassislari Multi-Level turli til bilish darajasidagi talabalarni quyidagi guruhga yoki tabaqalarga ajratgan holda o‘rganishgan:

**1. Previous Educational Background (dastlabki o‘rgangan xorijiy til turi)** ya’ni, talabaning maktabda yoki kollejda boshqa tilni o‘rganganligi.


**2. Roman Alphabet (bir til oilasi guruhi)** ya’ni, ingliz tilidan boshqa tilda so‘zlashuvchi til vakili bo‘lib, ingliz tilini boshlang‘ich darajadan o‘rganayotgan talaba.

**3. Motivation (til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi)** ya’ni, tilni nima maqsadda o‘rganayotgan, tilni qanday o‘rganishni xohlovchi.

**4. Learning Style (til o‘rganuvchining qaysi turga mansubligi)**


- Visual – (tasavvuriy va ko‘rish)
- Auditory – (eshitishga ko‘ra)
- Kinesthetic – (sezish, xis qilish, harakat, ushlab, amaliyotda bajarish)

**5. Age** ya’ni, talabalarning yoshi va qobiliyatlarining har xilligi.



<sup>11</sup> Managing mixedability classes / # Aus EST chat summary (July4, 2013) <http://auselt.com/2013/07/22/auselt-chatsummary-managing-mixed-ability-classes-july-4-2013/> (murojaat sanasi: 11.01, 2022.)

Nofilologik OTM ATKI yo‘nalishlarida (CLIL – Content and Language Integrated Learning) fanlararo bog‘liqlikka yo‘naltirilgan kasbiy ingliz tilini o‘qitishda talabalarni til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash muhim sanaladi. Quyidagi rasmda turli til bilish darajasidagi talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar tasvirlangan. (2-rasmga qarang).



### 2-rasm. Ehtiyojni aniqlash bosqichlari

Ehtiyojning aniqlanish bosqichida talabalarni til bilish darajasiga binoan guruhlarga ajratilishi, til o‘rganishdan maqsadi aniqlanishi (biznes uchunmi, ta’lim olish, sayohat qilish, professional hamkorlik qilish uchunmi), sohaga oid tabaqalashtirilgan autentik o‘quv materiallarni saralash, samarali o‘qitish strategiyalarni tanlash va qo‘llash hamda baholashda rag‘batlantirish orqali til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Chet tilini ESP doirasida o‘qitilishida Sh.Abrar Xasan maqsadning aniqlanish bosqichlari quyidagi talablar asosida amalga oshirilishi lozimligini ko‘rsatadi:

- talabani til o‘rganishdan muayyan niyatini aniqlash;
- o‘quv reja asosida dars mashg‘ulotini tashkillashtirish;
- autentik o‘quv materiallar mosini tanlash va tadbiriq etish;
- rag‘batlantiruvchi, ruhlantiruvchi baholash turini joriy qilish.

Bundan tashqari metodika soha vakillari chet tilini ESP doirasida o‘qitilishida quyidagi mezonlar asosida bajarilishi lozimligini qayd etadilar, ular:

- til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini o‘rganish;
- qobiliyati va layoqatini (lingvopsixologik faktorlar: vizual, auditory, kinesthtetic tinglab o‘rganuvchi yoki o‘qib o‘rganuvchiligini) aniqlashni tavsiya etadilar. Keyingi bosqichda turli til bilish darajasidagi talabalarga sohaga doir autentik materiallarni tanlash va taqdim etish bosqichi amalga oshiriladi. Oxirgi yillardagi tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mashg‘ulot jarayonida foydalanilayotgan autentik materiallar o‘qitish usullari va texnikalar bilan hamohanglikda olib borilganda, an’anaviy dars jarayonidan ko‘ra natijaviyligi bilan hamda ma’lumotlar xotirada uzoq saqlanib qolishligi bilan ajralib turishi isbotlangan. Autentik materiallar dars mazmunini boyitishda va uning rang – barangligini ta’minlashda samarali o‘qitish vositasi bo‘lib, u aralash bilim darajasidagi talabalarni e’tiborini jalb etishda o‘quv darsligiga qaraganda qiziqarliroq. Autentik materiallar, ya’ni bosma, audiovizual materiallarga

asoslangan tizimli o'qitish metodikasi ustida olimlaridan A.Ye.Chikunova, I.Verisokin, N.A.Gridneva, R.P.Milrud, Ye.V.Nosonovich, G.G.Joglina, T.S.Malisheva, A.I.Kolchinalar samarali ilmiy izlanishlar olib borib, talabalarni ular orqali o'qitishning o'ziga xos ijobiy imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilishgan. O.M.Ryabseva talabalarni kasbga yo'naltirilgan leksik va nutq faoliyat turlarini o'zlashtirishida eng avvalo, professional ahamiyatga ega bo'lgan maxsus autentik materiallarni tanlanishi muhimligini ta'kidlab, quyidagi talablarga javob berishi lozimligini ko'rsatadi:

- o'rganilayotgan fanga motivatsiyasini uyg'otishi;
- ishonchli ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilishi;
- muloqot qobiliyatini rivojlantira olishi;
- mutaxassislikni o'rganishda tildan foydalanishga imkon yaratishi.

Turli til bilish darajasidagi talabalarga til o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'qitish usullari va yondashuvlarni to'g'ri tanlash samaradorlikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Qo'llanilgan usullar o'qituvchini mashg'ulot davomida rejalashtirgan faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishini va darsdan ko'zlagan maqsadini natijaviyligini ta'minlaydi. Mutaxassis olimlar dars jarayonining har bir bosqichida qo'llanilgan maxsus texnikalar va usullar talabalarga ta'sir qilish doirasiga ega ekanligini hamda o'rganilayotgan mavzuning ahamiyatini oshirishini ta'kidlaydilar. Masalan, turli til bilish darajasidagi talabalarga til o'qitishda Julia Sevy "Dual Lesson plan", yani ikkitalik dars rejasidan foydalanishni taklif qilsa, Soto Garden Stefaniye "Case study" usulidan foydalanib, talabalarni ijodkorlikka o'rgatishni tavsiya qiladi.

Dissertatsiyaning "**Turli til bilish darajasidagi talabalarni kasbga yo'naltirilgan ingliz tiliga o'qitishning pedagogik va metodik asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida, ATKI yo'nalish talabalarining sohaviy leksikasini rivojlantirish barobarida til ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy o'qitish jarayoni yoritilgan bo'lib, kasbiy sohaga yo'naltirilgan ingliz tilini rivojlantirishda tilni fanlararo bog'liqlikda ingliz tilida muloqot qilishlarini ta'minlovchi, sohaviy leksik birliklarni idrok etishi, ularning diqqat, xotira, tasavvur, kognitiv tafakkuri, ya'ni tanqidiy fikrlash (critical thinking), ijodkorona fikrlash (creative thinking) ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynovchi sohaviy matn va u asosida tuzilgan leksik va grammatik mashqlar bilan ishlash jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Leksik, grammatik mashqlar orqali til *ko'nikmasini* shakllantirish, kommunikativ muloqotga tayyorlovchi muhim bosqichdir. Bu haqida I.A.Zimnyaya til o'rgatishda mashqlarning bosqichma-bosqich ta'minlanishi muhimligini e'tirof etib, birinchidan, o'qituvchi oldindan tayyorlagan mashqlar orqali lisoniy bilimni berishni, ikkinchidan, kommunikativ topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan imkoniyatni yaratishi lozimligini aytadi. Shu tarzda mashqlarni ketma-ket muayyan tarzda berilib borilishi talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma bosqich rivojlanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Amalda foydalanilayotgan mavjud adabiyotlar bugungi kundagi nofilologik OTM ATKI yo'nalishlarida ta'lim olayotgan bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy chet tiliga bo'lgan ehtiyojini qondira oladi deb ayta olmaymiz. Namunaviy ishchi o'quv dasturlarda asosiy adabiyotlar tarkibiga kiritilgan G.X.Boqiyeva, F.M.Rashidova tomonidan yaratilgan «Scale up» darsligi nofilologik oliy ta'lim

ijtimoiy-gumanitar va filologiya yo‘nalishlarida ingliz tili maxsus maqsadlarda o‘qitilishda samarali foydalanib kelinmoqda. Ushbu darsliklar ingliz tilini o‘rganish uchun yoki mustaqil ta‘lim olish uchun samarali bo‘lsa-da, ATKI yo‘nalishlarida ingliz tilini sohaviy o‘qitishga yo‘naltirilmagan. Tadqiqotimiz jarayonida TATU Farg‘ona filiali, ADU, NamDU universitetlari xorijiy til ishchi o‘quv dasturlari, fan sillabuslari tahlil qilingan. Tahlillar natijasida shu narsa aniqlandiki, tuzilgan ishchi rejalarning aksariyatida Multi-Level approach-aralash bilim darajasidagi talabalar bilan ishlash metodlari, texnika va strategiyalari ishlab chiqilmagan va taklif qilinmagan. Bundan shuni hulosa qilishimiz mumkinki, ilmiy ish nafaqat talaba uchun qaratilgan, balki o‘qituvchining zimmasiga Multi-Level turli til bilish darajasidagi talabalarni o‘qitishda o‘quv didaktik materiallar bilan ta‘minlashdek mas‘uliyat yuklanmoqda. Chunki, o‘quv dasturlarda va ishchi rejalarda bu hisobga olinmagan. Buning uchun o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi, ta‘lim mazmunini tanlashda talabalarning turli til bilish darajalarini hisobga olishi, mos o‘qitish texnikalari va sohaviy autentik materiallarni tanlashi lozim. Bu narsa o‘qituvchining zimmasida ekanligi, bizning ilmiy ishimizning qanchalik dolzarb ekanligini yana bir bor isbotladi. ATKI yo‘nalishlari Multi-Level darajasidagi talabalarni o‘qitishga qaratilgan o‘quv sohaviy adabiyotlarning kamligi, vaziyat yuzasidan “English through digital devices” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishimizni taqozo etgan. Biz taklif qilgan o‘quv qo‘llanma sohaviy matn va tipologik mashqlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, turli til bilish darajasidagi talabalarning o‘qish, yozuv, gapirish va tinglab tushunish til ko‘nikmalarini bosqichma bosqich rivojlantirishga hamda kasbiy kommunikativligini ta‘minlashga qaratilgan. Ayni paytda nofilologik Oliy ta‘lim yo‘nalishlarda chet tilni o‘qitish masalasi professional tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq yoki boshqacha qilib aytganda, kelajak faoliyatda chet tilidan foydalanish zarurati bilan bog‘liq. Kasbiy autentik materiallarni tanlash aniq mezonlar talabida, ya‘ni matnlar va nutqiy vaziyatlarning bo‘lajak mutaxasislarning kasbiy manfaatlariga bog‘liq bo‘lishi muhim. Tanlanib olingan o‘quv materiallar:

- sohaga doir bo‘lishi;
- qiziqishini ta‘minlashi;
- bilimni oshirishi;
- kasbiy muloqotga tayyorlashi lozim.

Qo‘llanmaning 14-22-sahifalardan o‘rin olgan *The role of computer in our life* – *Kompyuterning hayotimizdagi o‘rni* mavzusi talabalar til ko‘nikmalarini shakllantirishda namuna sifatida keltirilgan.

**Reading – o‘qish ko‘nikmasini** rivojlantirishda har bir bosqich talabalarga tabaqalashtirilgan matndan parcha taqdim etilgan.

**Elementary** – Boshlang‘ich bilim darajaga.

A computer is one of the electronical device that we use it every day. Computer stores, retrieves, and processes data. We use a it in order to type documents, send email, play games, and browse the Web. And we use it to edit or create spreadsheets, presentations, and even videos. Also computer is a tool that helps a person to quickly solve problems in work or everyday life.

**Pre- intermediate** – O‘rta bilim darajaga.

But without a person who sets tasks and manages them, like any tool, it remains a simple piece of iron. But the role of computer in society is great.

Computers have become an inevitable part of human life. We live in an information society and computers are present in our lives, in every area of our activity. Computers today are much more than just electronic computers.

**Intermediate** – Yuqori bilim darajaga.

What does computer consist of? Central processing unit (CPU) - the basic element of any computer that processes all information. Random access memory (RAM) - memory that stores what the processor is currently working with. When the computer is turned off, the RAM is cleared; when it is turned on, all the necessary information is loaded into it again. Hard disk (ROM) - the place where all files and programs are stored. Output devices - the screen of your computer, laptop, tablet, phone, speakers, printer, etc. Input devices - keyboard, mouse, microphone, touch screen.

Kasbga doir matn boshlang'ich, o'rta va yuqori bilim darajasidagi talabalarning bilimiga moslashtirilgan bo'lib, ajratilgan matndan parcha so'zlarning soni va hajmi jihatdan farq qilgan. O'qituvchining har bir darajadagi talabalarga tabaqalashtirilgan matnni taqdim etish usulidan foydalanishi, ularga psixologik tomondan ta'sir qilib, *talabada, o'qituvchining e'tibori unda ekanligini va u, diqqat markazida ekanligini* his qilgan. Bu usul esa ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirgan. Taklif qilingan matn talabalarga tanish bo'lgan kompyuter qurilmalarining xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ingliz tilidagi varianti bilan tanishishga imkon yaratib, ularda transformatsiya jarayoni kechishini ta'minlagan. Transformatsiya jarayoni matnda mavjud bo'lgan ingliz tilidagi terminlarni o'zbek tilidagi tarjimasini bilan qiyoslashga, boshlang'ich bilimlari bilan solishtirishga, tekstni idrok etishga, kasbiy leksikani muloqot jarayonida qo'llashga ta'sir qiladi.

**Speaking-gapishtil til ko'nikmasini rivojlantirishda** har bir darajadagi talabalarga o'zlariga ajratilgan parcha yuzasidan og'zaki savollar tayyorlangan bo'lib, savollar yuzasidan matnda berilgan ma'lumotlarni topish, ajratish, tahlil qilish va javob berishlari orqali qay darajada matn ma'nosini tushunganligini aniqlashimizga imkon yaratgan va bu asosan, matn qismlarida yashiringan tafsilotlarni aniqlash orqali bajarilgan.

Elementary: What is output devices? What is input devices?

Pre- Intermediate: How do computers make our work easy? What do computers use it for?

Intermediate: What is the role of hard disc? What is the random access memory?

Talabaga mavzuni kengroq yoritish uchun qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishimiz, uni fikrini jamlashiga va ingliz tilida ifoda etishiga ko'mak beradi. Masalan:

- Could you repeat? Kechirasiz javobingizni qaytara olmaysizmi?
- What do you mean? Kechirasiz nimani nazarda tutyapsiz?
- I'm sorry, I didn't understand you that... Uzr, men buni tushuna olmadim...
- I'm not sure what to do.. Nima qilishni bilmadim.

Matn yuzasidan tuzilgan leksik va grammatik mashqlar sohaviyligi, bilim darajasiga binoan tabaqalashganligi bilan xarakterlanib, **Task – Based Learning** metodi asosida tashkillashtirilgan. Boshlang'ich (Elementary) darajadagi

talabalarga taklif qilingan mashq kasbga doir gapni ma'no jihatdan birlashtirish (*Matching words and expressions*) bo'lib, talabalarda ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish imkonini bergan, kreativ (creative) ijodkorona fikrlash qobiliyatini shakllanishga ta'sir qilgan, leksik birliklarni tanish va eslab qolish hususiyatlarini, ya'ni ularda kognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan.

*Match the following words and expressions from column A with these in column B.*

Column A	Column B
1. Computers have become	a) manipulates information, or data.
2. A computer is an electronic device that	b) an inevitable part of human life.
3. Computer has the ability to	c) just electronic computers.
4. Computers today are much more than	d) store, retrieve, and process data.

O'rta (Pre-intermediate) darajasidagi talabalarga taqdim qilingan *produktiv mashqlar (Complete the sentences)*: Berilgan gapning davomini yozish; Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yishdan iborat bo'lib, ularda nafaqat kognitiv va reproduktiv qobiliyatlarini rivojlantirishga, balki ingliz tilidagi kasbiy so'z boyligini oshishiga xizmat qilgan.

*Complete the sentences A with these in column B.*

Column A	Column B
1. Operate	a) the process or activity of accurately ascertaining one's position
2. Navigation	b) a person or company that runs a business.
3. Mac	c) that is intermediate in size between a laptop and smartphone.
4. Tablets	d) a family of desktop and laptop computers from Apple.
5. Desktop	e) features a 9.7 – inch touch screen that users can interact with directly through fingers strokes.
6. iPad	f) a computer suitable for use at an ordinary desk.

